

**Craqirtikan(*Tribulus terrestris*)-o'simligining morfologiysi va xalq tabobatida tutgan o'rni.**

***Mirzadavlatova Diyoraxon Doniyor qizi***

*Farg'onan davlat universiteti*

*Tabiiy fanlar fakulteti talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Craqirtikan yuqori qon bosimi, oshqozon muammolari va siyidik yo'llari infektsiyalari kabi bir qator sog'liq bilan bog'liq muammolarni davolash uchun tibbiyotda dori sifatida ishlatalgan. Bu o'simlikning balandligi 10-60 sm, ipak tukli o'simlik. Barglari qarama-qarshi, ko'pincha teng bo'limgan. Gullari sariq, mevasi qattiq tikanli, may va avgust oyalarida gullab urug' beradi. Ekinlar orasida, bog'larda, yo'l bo'yalarida, daryolar va suv yoqalarida uchraydi. O'zbekiston hududida keng tarqalgan.

**Kalit so'zlar;** O'simlik, daryo, suv, yer, yurak, arteroskleroz, diabet, gormon, temir yo'l.

**Kirish.** Craqirtikan bir yillik o'simlik bo'lib poyasining yuqori qismi yuqoriga ko'tarilgan bo'yi 10-60 sm shoxlangan tanasi qo'shaloq mayin tukchalar bilan qoplangan barg uzunligi 3-6 sm bandi qisqa cho'zinchoq, uchlari o'tkir, yon barglari yupqa pardasimon, egiluvchan, to'qiluvchan, gullari 1-2 ta, sariq rangli, gul bandda joylashgan. Mevalari qattiq, tikanli, yassilashgan yumaloq, diametri 10-15 mm, tikanlari gorizontalayriluvchi uzunligi 15 sm gacha boradi.

Craqirtikan bo'sh yotgan yerlarda, daryo, vodiylarda, asosan dasht va cho'l zonalarida, ko'pincha qumli tuproqlarda, begona o't sifatida poliz ekinlari va dehqonchilik yerlarida, yo'l va temir yo'l bo'yalarida o'sadi. Craqirtikan madaniy holda yaxashi o'sadi. Vohalarning begona o't bosgan yerlari, lalmi yerlari, yo'l bo'yulari, chala cho'l mintaqalarining daryo va soy bo'yi qirg'oqlarida, kam hollarda yarim dashtlarda uchraydi. Ko'pincha yo'l bo'yulari va temir yo'l ko'tarmalari yaqinida o'sadi.

Yurtimiz hududida Toshkent, Namangan, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida keng tarqalgan.

Tarqalish areali; O‘rta Osiyo, Rossiyaning yevropa qismini janubida, Kavkaz, Janubiy Yevropa, Shimoliy va Janubiy Afrika, Osiyoning Janubiy qismlari, Avstraliya.

Chaqirtkan tarkibida steroid glikozidlari, flavonoidlar, alkaloidlar va taninlar bor. O‘simglikdan “Tribusponin” preparati tayyorlanadi. Temirtikan o‘simgligi uzoq vaqt davomida Hindiston va Xitoy tibbiyotida turli xildagi kasalliklarni davolashda qo‘llanilgam. U diuretik, afrodizyak, antiurolitik, immunomodulyatsion, diabetga qarshi, so‘rilishni kuchaytiruvchi, gipolipidemik, kardiotonik, markaziy asab tizimi, gepatoprotektiv, yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, spazmolitik, saratonga qarshi, antibakterial, antispazmodik ta’sirga ega.

Chaqirtkan xalq tabobatida tonik, afrodizyak, palliativ, biriktiruvchi, oshqozon, qon bosimini pasaytiruvchi, siydik haydovchi, va siydik yo‘llarini dezinfektsiyalovchi sifatida qo‘llaniladi. O‘simglikning quritilgan mevalari genitouriya tizimining ko‘plab kasalliklarida juda samarali. Bu genitour tizimning to‘g‘ri ishlashini qo‘llab-quvvatlash va siydik toshlarini olib tashlash uchun ishlatiladigan kuchli dorini muhim tarkibiy qismidir.

Chaqirtikandan olingan suyuq va suv ekstraktlari o‘t suyuqligini kuchaytirib, oshqozon shirasining sekretsiyasini stimullaydi. Tribusponin arteroskeleroz, yurak ishemiyasi va gipertoniya, terapevtik maqsadlarda foydalilaniladi. Ko‘proq shoxli arteriyalarning zararlanishi bilan bog‘liq arteroskelerozni davolashda bemorlarga xolestrin miqdorini kamaytirishga qo‘llanilgan.

Butun dunyoga mashhur bo‘lgan mamlakatlar farmasevtikasida jumladan; Xitoy, Italiya, AQSH, Rossiyada, keng qo‘llashadi. Chaqirtkan tarkibida yana bir muhim modda Leykozitni saqlaydi. Bu inson organizmida Registron va Kartizol garmonlarini sintezlashda yordam beradi. Chaqirtikandan bundan tashqari ayollar va erkaklar jinsiy kasalliklarini tuzatuvchi dorilar

tayyorlanadi. Bu giyoh diareya, anemiya, dermatit, psoriaz, podogra kasalliklarida, bavosil ya’ni gemaroy buyrak kasalliklari, o’tkir resperator kasalliklarida ham davodir. Qondan yomon xolistirinni haydaydi, gijja va shishlarga qarshi kurashish xususiyati bor.

**Xulosa** Chaqirtikanning foydali xususiyatlari, undan sharq tabiblari qaynatma va damlama tayyorlashib odamni tetiklantiradigan, siydik haydaydigan surgi dori tariqasida foydalinishgan.Bundan tashqari so‘zak, ko‘z og‘rig‘i va bosh og‘rig‘iga qarshi ishlatiladi. Chaqirtikan kukun holida ham foydalilanadi. Bu o‘tdan tayyorlangan damlama sanchiq shuningdek siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Tozalangan ildizini esa sutda qaynatib bezgakka qarshi foydalilanadi. Undan tashqari yiringli yaralarga ham ishlatiladi, aynan o‘tning shu xususiyatidan bobomiz Abu Ali ibn-Sino ham qo‘llagan.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

- 1.** O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
- 2.** Кхожиматов К.Х, Кхожиматов О.К, Собиров У.А, Сборник правил пользования объектами лекарственных, пищевых и технических растений. Ташкент: “Янги аср авлоди”, 2009,171-с
- 3.** Sasha W. Eisenman, David E. Zaurov "Medicinal Plants of Central Asia: Uzbekistan and Kyrgyzstan", -2012
- 4.** R. Büttner “Mansfeld's Encyclopedia of Agricultural and Horticultural Crops”, - 2001
- 5.** A. Majidov “O‘simliklar olami” -2011
- 6.** Е. Донецкая. — М : Издательство Вече, 2018. — Т.6: 592 с. : ил. — (Популярная энциклопедия)
- 7.** <https://planta-medica.uz/>
- 8.** <https://www.sciencedirect.com/>
- 9.** <https://in-academy.uz/>
- 10.** <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/>